

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
HUZURIDAGI KASBIY TA‘LIM AGENTLIGI
KASBIY TA‘LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI**

**O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG
KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN
OFTALMOLOGIYADA HAMSHIRALIK ISHI FANIDAN MALAKA TEST
SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI**

Toshkent – 2026

O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN OFTALMOLOGIYADA HAMSHIRALIK ISHI FANIDAN MALAKA TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta‘lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Oftalmologiyada hamshiralik ishi talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo‘llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me‘yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko‘nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me‘yoriy asoslar

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi “**Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta‘lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida**”gi 572-sonli Qarori.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

Oftalmologiyada hamshiralik ishi

1.Ko‘z kasalliklari fani tarixi va uning maqsadi. Ko‘ruv organi anatomiyasi. Ko‘zning ko‘rish faoliyati. Refraksiya va akkomodatsiya.

2.Ko‘z qovoqlari, ko‘z yoshi yo‘llari va shilliq qavati yallig‘lanish kasalliklarida hamshiralik parvarishi. Shox parda, oqsil parda yallig‘lanish kasalliklarida hamshiralik parvarishi.

3.Tomirli parda kasalliklari. To‘r parda va ko‘ruv nervi yallig‘lanish kasalliklari. Ko‘z gavhari va shishasimon tana kasalliklarida hamshiralik parvarishi.

4.Glaukoma. Tug‘ma glaukoma. Ko‘ruv a‘zosi shikastlari, unda tez tibbiy yordam ko‘rsatish va hamshiralik parvarishi.

5.G‘ilaylik. Ko‘ruv a‘zosi o‘smalari. Oftalmologik ekspertiza.

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Testlar soni
1	<p>Ko‘z kasalliklari fani tarixi va uning maqsadi.</p> <p>Ko‘ruv organi anatomiyasi.</p> <p>Ko‘zning ko‘rish faoliyati, Refraksiya va akkomodatsiya</p>	<p>Oftalmologiyada hamshiralik ishi fani haqida tushuncha va uning tibbiyot fanlari orasidagi o‘rni bilishi. Refraksiya va akkomodatsiya tushunchasini bilish. Refraksiyani tekshirish usullarini bilish. Ko‘zning markaziy ko‘ruvi, ko‘ruv o‘tkirligini ko‘ruv maydonini aniqlashni biladi. Presbiopiyada ko‘zoynak tanlashni bilish. Qorachiqalar orasidagi masofani o‘lchashni hamda ko‘zoynakka retsept yozishni aniqlashni bilishi va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi lozim. Ko‘z kabinetini tekshirishga tayyorlashni hamda ko‘rish o‘tkirligini jadvallar asosida tekshirishni va Ye.B.Rabkin polixromatik jadvali yordamida rang sezishni aniqlashni bilishi va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi lozim.</p>	11 ta
2	<p>Ko‘z qovoqlari, ko‘z yoshi yo‘llari van shilliq qavati yallig‘lanish kasalliklarida hamshiralik parvarishi.</p> <p>Shox parda ,oqsil parda yallig‘lanish kasalliklarida hamshiralik parvarishi</p>	<p>Konyuktiva bo‘shlig‘iga tomchi dori tomizishni hamda qovoq orqasiga malham qo‘yishni biladi. Govmichcha, blefarit, xalyazion, qovoq abscessining sabablari, klinikasi, davolash usullari, oldini olishni bilishni. Dakrioadenit, dakriotsistit sababi, klinikasi, davosi va oldini olishni biladi. O‘tkir va surunkali kon’yuktivitlar namda chaqaloqlar ko‘z gonoblenoreyasi sababi, klinikasi, davosi va oldini olishni bilishni. Qovoq va qovoq qirralarini ko‘rikdan o‘tkazishni va ustki qovoqni ag‘darib ko‘rishni aniqlashni bilishi lozim. Ko‘z yoshi yo‘llarini zondlash va yuvish uchun jixozlar tayyorlash. Qovoq qirralarini uqalashni bilishni. Qovoq konyuktivasidan surtma olish. Kon’yuktiva bo‘shlig‘ini antiseptik vositalar bilan yuvishni bilishni. Shox pardaning yallig‘lanishi patologiyasi va belgilari. Keratit va episklerit, sababi, klinikasi, davosi va oldini olishni bilishni. Shox pardani mahalliy og‘riqsizlantirishni va undan yot jismni olish. Shox parda kuYGanda birinchi yordam ko‘rsatish. Shox parda sezuvchanligini aniqlashni biladi va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi lozim.</p>	9 ta
3	<p>Tomirli parda kasalliklari.</p> <p>To‘r parda va ko‘ruv nervi</p>	<p>Irit, iridotsiklit, uveit kasalligining sabablari, klinikasi, davosi, oldini olishni bilishni va shu bemorlarni ko‘rish o‘tkirligini tekshirishni bilishni To‘r parda kasalliklari sababi, belgilari, davosi, oldini olish. Retinopatiya turlarini, to‘r pardaning ko‘chish sabablari. Ko‘ruv nervi kasalliklari sababi, belgilari, davosi, oldini olish.</p>	9 ta

	<p>yallig‘lanish kasalliklari. Ko‘z gavhari va shishasimon tana kasalliklarida hamshiralik parvarishi.</p>	<p>Iridosiklit o‘tkir xurujida birinchi yordam ko‘rsatish. Ko‘z qorachig‘ini kengaytiruvchi dorilarni tomizish. To‘r pardaga qon quyilganda yordam ko‘rsatish. To‘r parda ko‘chishida bemorlarni operatsiyaga tayyorlashni va operatsiyadan keyin hamshira parvarishi. Binokulyar bog‘lam qo‘yishni bilishni. Katarakta, afakiya tushunchasi. Katarakta turlari, belgilari, davosi. Shishasimon tana kasalliklari. Kataraktaning boshlang‘ich davrida bemorlarni davolash uchun tomchi dorilarga retsept yozish. Bemorni operatsiyaga tayyorlash. Katarakta operatsiyasidan keyin hamshira parvarishi. Operatsiyaga kerakli asbob-anjomlarni zararsizlantirishni amaliyotda qo‘llay bilishi va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi lozim.</p>	
<p>4</p>	<p>Glaukoma. Tug‘ma glaukoma. Ko‘ruv a‘zosi shikastlari,unda tez tibbiy yordam ko‘rsatish va hamshiralik parvarishi.</p>	<p>Glaukoma tushunchasini biladi. glaukoma sabablari, turlari, belgilari, davosi, oldini olishni, glaukoma xuruji belgilarini farqlaydi, glaukomada ko‘z bosimi o‘zgarishini biladi, ko‘z ichi bosimini barmoqlar yordamida paypaslab aniqlay oladi, ko‘z ichi bosimini Maklakov tanometri bilan o‘lchay oladi, glaukoma o‘tkir xurujida shoshilinch yordam ko‘rsatishni va hamshira parvarishlay oladi. Bemorlarni operatsiyaga tayyorlashda va operatsiyadan keyin hamshiralik parvarishini, glaukomada ko‘z sinamalarini o‘tkazishni, glaukomada dispanser nazoratini olib borishni bilishni. Ko‘ruv organining shikastlari sababi, davosi, birinchi yordam ko‘rsatishni, ko‘ruv a‘zosini shikastlarining asoratlarini, ko‘zning yordamchi qismlari shikastlanganda birinchi yordam ko‘rsatishni, ko‘zning mayda yot jismlardan shikastlanganda yordam ko‘rsatishni, kontuzion shikastlanishda birinchi yordam ko‘rsatish, kimyoviy moddalar bilan kuyganda kon’yuktiva bo‘shlig‘ini yuvishni, bemorlarni transprtirovka qilishni, bir va ikkala ko‘zga bog‘lam qo‘yishni bilishi lozim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi lozim.</p>	<p>7 ta</p>
<p>5</p>	<p>G‘ilaylik. Ko‘ruv a‘zosi o‘smalari. Oftalmologik ekspertiza.</p>	<p>G‘ilaylik turlari, sabablari, belgilari, davosini, ko‘ruv a‘zosi o‘smalari, ularning turlari, belgilari, davolash va hamshira parvarishini, dispanser nazoratini olib borishni, g‘ilaylikni aniqlash usullarini, g‘ilaylikni konservativ davolash usullarini, bemorlarni operatsiyaga tayyorlash va undan keyingi parvarishni, oftalmologik ekspertizaning ahamiyatini, o‘sma kasalliklari bilan og‘rigan bemorlarni parvarish qilishni, nogironlikka o‘tkazish sabablarini va bemorlarni dispanser nazoratga</p>	<p>4 ta</p>

		olib, kuzatib borishni bilishi va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.	
--	--	---	--

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	20 %
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	60 %
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	20 %

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarini topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezoni va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

Test topshirig'ini bajarish uchun 80 daqiqa vaqt me'yori belgilanadi.

VIII. Imtixon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtixon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtixon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. F.S.Yuldasheva, S.M.Aripova. «Ko‘z kasalliklari». Toshkent, Cho‘lpon nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2012 yil.

2. N.R.Yangiyeva.S.S.Agzamova Oftalmologiyada hamshiralik ishida hamshiralik ishi “TURON NASHRIYOT” Toshkent -2023y

3. F.S.Yuldasheva, S.M.Aripova. «Ko‘z kasalliklari». Toshkent, Cho‘lpon nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2017 yil.

**Eslatma: test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi, ammo test topshiriqlari to‘g‘ridan - to‘g‘ri manbalardan olinmaydi. Malaka sinoviga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlar eslab qolish manbai sifatida xizmat qilishdan ko‘ra, umumiy kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashga qaratilgan.*